



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 29 - mart

VI-59-68-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Xalq deputatlari Bulung'ur tumani Kengashi qoshidagi “Yoshlar parlamenti vakillari maktabi”ni tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6260-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 12- oktabrdagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni Senat va Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish hamda yangi avlod zaxira kadrlarini shakllantirib borish to‘g‘risida”gi KQ-272-sonli Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari tuman Kengashining ellik to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 12-oktabrdagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularni Senat va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish hamda yangi avlod zaxira kadrlarini shakllantirib borish to‘g‘risida”gi KQ-272-sonli Qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi yoshlarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o‘rni va ta’sirini amalda ta’minlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlamga aylantirish hamda ularning siyosiy-huquqiy bilim va ko‘nikmalarini boyitish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb qilish va ularning xalq deputatlari tuman Kengashi, qolaversa parlament hayotiga daxldorligini oshirish maqsadida, xalq deputatlari

Bulung‘ur tumani Kengashi qoshida “Yoshlar parlamenti vakillari maktabi” tashkil qilinsin.

3. Xalq deputatlari tumani Kengashida tashkil etiladigan “Yoshlar parlamenti vakillari” maktabi to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga, tuman “Yoshlar parlamenti vakillari maktabi” a’zolari ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (A.Shokirov), Kengashning doimiy komissiya raislari va Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (K.Gapporov)larga:

“Yoshlar parlamenti vakillari maktabi”ni tashkil etish jarayonlarini muvofiqlashtirib borish;

tasdiqlangan yangi avlod zaxira kadrlari rahbarlik lavozimlariga asosiy nomzod sifatida tavsiya etilishini ta’minalash;

“Yoshlar parlamenti vakillari maktabi”ning a’zolari faoliyatlarini olib borishi uchun tuman Yoshlar agentligi binosidan o‘quv xonasi ajratish vazifalari yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov) hamda “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G.O‘rolov)lar “Yoshlar parlamenti vakillari maktabi” faoliyatiga aloqador ma’lumotlarni tuman gazetasi va tuman hokimligining rasmiy web-saytida muntazam yoritilishini ta’minalasin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi rasi (M.Usanova), xalq deputatlari tumani Kengashi kotibiyati mudiri (A.Shokirov), tuman hokiminig o‘rinbosari (A.Buriboyev) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov

Xalq deputatlari Bulung'ur tuman
Kengashining
2022 yil 29 martdag'i
VI-59-68-7-93-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Xalq deputatlari Bulung'ur tumani Kengashi qoshidagi Yoshlar parlamenti
vakillar maktabi to'g'risidagi**

NIZOM

1-bob. Umumiq qoidalar

1. Ushbu Nizom xalq deputatlari mahalliy Kengashlari Yoshlar parlamenti vakillari maktabining maqsad va vazifalarini, uning tashkil etilishi tartibini hamda faoliyatining asosiy yo'naliishlarini belgilaydi.

2. Yoshlar parlamenti vakillari maktabi (keyingi o'rinnarda – vakillar maktabi) o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Senat Kengashining, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining qarorlariga, ushbu Nizomga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

3. Vakillar maktabi xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida tashkil etiladigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan jamoatchilik asosida tuziladigan maslahat organi hisoblanadi.

4. Vakolat muddati tugagach vakillar maktabi a'zolari vakillar maktabining yangi tarkibi shakllangunga qadar faoliyat yuritib turadilar. Vakillar maktabi a'zolari jamoatchilik asosida faoliyat yuritishi belgilanganligi sababli, daxlsizlik huquqidan foydalana olmaydilar.

2-bob. Yoshlar parlamenti vakillari maktabining maqsad va vazifalari

5. Vakillar maktablarining asosiy maqsadi hududlarda yoshlarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o'rni va ta'sirini amalda ta'minlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlamga aylantirish hamda ularning siyosiy-huquqiy bilim va ko'nikmalarini boyitish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb qilish va ularning xalq deputatlari tuman Kengashi, qolaversa parlament hayotiga daxldorligini oshirishdan iborat.

6. Vakillar maktabi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalari va doimiy komissiyalar majlislarida yoshlar vakillarining ishtirokini ta'minlash, ularni normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va qabul qilish jarayoni, parlament nazorati bilan yaqindan tanishtirish;

hududlarda yoshlar huquq va manfaatlarini himoya qilishga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yoshlarga oid normativ[1]huquqiy hujjatlar, hududiy davlat dasturlariga takliflar ishlab chiqish; yoshlarda vakillik organi faoliyatiga oid ko'nikmalarni shakllantirish;

yoshlarga oid masalalar va muammolar yuzasidan o'rghanishlar olib borish va natijasi yuzasidan tegishli takliflarni xalq deputatlari tuman Kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritish; nogironligi bo'lgan, ota-onas qaramog'idan mahrum va yetim bolalar bilan ishlash;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda uning samaradorligini ta'minlash bo'yicha dolzarb va aniq yo'naliishlarni belgilash maqsadida muhokamalar o'tkazish; xalq deputatlari tuman Kengashi va yoshlar hamkorligini yanada mustahkamlashga qaratilgan zamonaviy yo'naliishlarni belgilash va samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

yoshlarning, ayniqsa, ish bilan band bo'limganlarning ishbilarmonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalg etish; yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlar ishtirokini oshirish;

yoshlarning tibbiy va ekologik madaniyatini yuksaltirishga, ular o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirishga, ularniig intellektual, ma'naviy-ahloqiy, estetik, badiiy dunyoqarashini kengaytirishga ko'maklashish;

yoshlar o'rtasida huquqbazarliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarda faol ishtirok etish; qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotining dolzarb muammolarini yoshlar ishtirokida muhokama qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar tayyorlash;

yoshlarning siyosiy bilimlarini oshirish, ularda vatanparvarlik ruhini kuchaytirishda vakillik organlari bilan hamkorlik qilish; yoshlarning parlament faoliyatini bo'yicha xabardorligini oshirish.

3-bob, Yoshlar parlamenti vakillari maktabi tarkibini shakllantirish va faoliyatini tashkil etish

7. Yoshlar ishlari agentligining tuman bo‘limi xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga vakillar maktabi a’zoligiga qabul qilinishi uchun nomzodlarni tavsiya etadi. Doimiy komissiya nomzodlar orasidan 30 nafarini saralab olib, tasdiqlash uchun Kengash muhokamasiga kiritadi

8. Xalq deputatlari tuman Kengashining deputatlari bir vaqtning o‘zida vakillik maktablarining a’zosi bo‘lishi mumkin emas.

9. Vakillar maktabini boshqaruvchisi rais deb yuritiladi. Vakillar maktabi raisi 30 yoshdan katta bo‘lmagan, huquqiy va siyosiy bilimga ega, tashabbuskor va malakali bo‘lishi talab etiladi.

Rais vakillar maktabining birinchi tashkiliy yig‘ilishida a’zolar tomonidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

Raislikka nomzodlar xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi tomonidan ko‘rsatiladi.

10. Yoshlar parlamenti vakillari maktabi faoliyatini davriy matbuot va internet ijtimoiy tarmoqlarda muntazam yoritib borish uchun a’zolardan biriga matbuot kotibi vazifasi yuklatilishi mumkin.

11. Vakillik maktablari quyidagi asosiy ustuvor yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi:

yoshlarning xalq deputatlari tuman Kengashi bilan doimiy hamkorligini yo‘lga qo‘yish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

yoshlar muammolari bilan ishslash va ularning murojaatlari yuzasidan o‘rganishlar tashkil etish;

nogironligi bo‘lgan, ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan va yetim bolalarni ijtimoiy himoya qilish;

yoshlarni ishga joylashtirish va ularning tadbirkorligini rivojlantirish jarayonlarini nazorat qilib borish;

hududlarda beshta muhim tashabbusni amaliyotga keng joriy qilishda faol ishtirok etish;

hududlarda iqtidorli va iste'dodli yoshlarni aniqlash va ularni rag'batlantirib borish bo'yicha tashabbuslar ko'rsatish.

12. Vakillar maktabi a'zolarining vakolat muddati xalq deputatlari tuman Kengashi vakolat muddatiga teng.

13. Vakillar maktabi a'zolarining majlisi uning rahbar organi hisoblanadi.

14. Vakillar maktabi tomonidan qabul qilingan hujjatlar tavsiyaviy xususiyatga ega bo'ladi.

15. Vakillar maktabi a'zolarining faoliyati xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

16. Vakillar maktabi majlislarini o'tkazish uchun Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi binosidan foydalaniladi.

17. Vakillar maktabi faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishga xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi mas'ul hisoblanadi.

4-bob. Yoshlar parlamenti vakillari maktabi faoliyatini yuritish tartibi

18. Vakillar maktabi a'zolarining majlislari zaruratga ko'ra, lekin har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi. Vakillar maktabi a'zolarining majlislari vakillar maktabi raisi tomonidan chaqiriladi.

Zarur hollarda vakillar maktabi majlislari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanilgan holda videokonferensiya aloqa rejimida o'tkazilishi mumkin.

19. Vakillar maktabi a'zolarining majlisi o'tkazilishidan kamida etti kun avval bu haqda vakillar maktabining har bir a'zosi xabardor qilinishi shart. Xabarnomada vakillar maktabi a'zolarining majlisi o'tkaziladigan vaqt va joy, shuningdek, taklif qilinayotgan kun tartibi ko'rsatilishi kerak.

20. Vakillar maktabi a'zolari majlislarining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi.

21. Vakillar maktabi tadbirlari ochiqlik va oshkorlik asosida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

22. Vakillar maktabi a'zolari majlisining bayonnomasi vakillar maktabi majlisida saylanadigan kotib tomonidan yuritiladi.

5-bob. Yoshlar parlamenti vakillar maktabi raisi va uning kotibi vazifalari

23. Vakillar maktabi raisi o‘z vazifalarini bajarishi davrida doimiy ish faoliyatidan ajratilmagan holda quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

o‘z vakolatiga ko‘ra yoshlarga oid masalalar bo‘yicha ko‘rib chiqilishi uchun xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga takliflar kiritadi;

vakillar maktabi a’zolari majlisini chaqiradi, ularga raislik qiladi;

vakillar maktabiga kiritiladigan yoshlarga oid masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik kiladi;

vakillar maktabi a’zolarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi va ularga vazifalarni taqsimlaydi;

ushbu Nizomda ko‘rsatilgan, qonun bilan taqiqlanmagan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

24 Vakillar maktabi kotibi:

vakillar maktabi a’zolarining majlisida qabul qilingan takliflar hamda majlislar bayonnomalarini yuritadi;

tuzilgan bayonnomalarni imzolash uchun raisga taqdim etadi hamda devonxona hujjat ishlarini yuritishni tashkil etadi;

majlis bayonnomalari ijrosini monitoring qilib boradi;

yoshlar tomonidan yuborilgan murojaatlarni qayd etib boradi va ular to‘g‘risida raisga axborot kiritadi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

25. Ushbu Nizomga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish yoki Yoshlar parlamenti vakillar maktabi faoliyatini to‘xtatib turish yohud tugatish xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli qarori bilan amalga oshiriladi.

Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashining
 2022 yil 29 martdagি
 VI-59-68-7-93-K/22-son qaroriga
 2-ilova

**Xalq deputatlari Bulung'ur tuman Kengashi qoshidagi “Yoshlar parlamenti vakillari maktabi” a’zoligiga tavsiya etilayotgan nomzodlar
 to‘g‘risida**

MA’LUMOT

Nº	F.I.Sh, tug‘ilgan yili va joyi	Ish yoki o‘qish joyi	Ma’lumoti va mutaxassisligi
1.	ABDUVOITOVA Alisher Shavkatovich 1997-yil, Bulung‘ur tumani	IT Markaz Bulung‘ur tumani rahbari	Oliy, 2020-yil Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Muhandis-dasturchi
2.	UBAYDULLAYEVA Umida Abdushukur qizi 1996-yil, Bulung‘ur tumani	Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti	Oliy, 2020-yil Samarqand davlat universiteti, filolog o‘zbek tili va adabiyoti
3.	BAXODIROV Nuriddin Faxritdin o‘g‘li 1994-yil, Bulung‘ur tumani	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Bulung‘ur tuman bo‘linmasi bosh mutaxassisini	Oliy, 2019-yil. Samarqand veterinariya meditsinasi instituti, texnolog
4.	SARIMSOQOVA Sarvinoz Turg‘unboy qizi 2002-yil, Bulung‘ur tumani	Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi	Tugallanmagan oliy

5.	JALILOV Ikrom Yusuf o‘g‘li, 1992-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani, “Bulung‘ur” mahallasi yoshlar yetakchisi	Oliy, 2017-yil Toshkent davlat texnika instituti, Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarish, jihozlash va avtomatlashtirish
6.	XO‘ROZOV Shaxzod Shavkat o‘g‘li, 1997-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani, “Gulzor” mahallasi yoshlar yetakchisi	Oliy 2017-yil Toshkent davlat texnika instituti, Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarish, jihozlash va avtomatlashtirish
7.	BAXRIEV Ulug‘bek Abduqaxxon o‘g‘li 1996-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani, “Istiqlol” Mahallasi yoshlar yetakchisi	Oliy, 2021-yil Jizzax Davlat pedagogika instituti, Jismoniy tarbiya
8.	RAXMATULLAEV Shoxruh Umurzoq o‘g‘li, 1999-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani, “Mingchinor” mahallasi yoshlar yetakchisi	Oliy, 2020-yil Jizzax Davlat pedagogika instituti, Biologiya o‘qitish metodikasi
9.	ORZIQULOVA Xilola Fazliddin qizi 2001-yil, Bulung‘ur tumani	O‘zbekiston davlat Konservatoriysi talabasi	Tugallanmagan oliy, “Zulfiya” davlat mukofoti sovrindori
10.	G‘AFFOROV Doniyor Odil o‘g‘li, 1998-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani, “Nebo‘sa” Mahallasi yoshlar yetakchisi	Oliy, 2021-yil Jizzax Davlat pedagogika instituti, Jismoniy tarbiya

11.	ABDUSALOMOV Akobir Akmal o‘g‘li, 1997-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani, “Yangiqo‘rg‘on” mahallasi yoshlar yetakchisi	O‘rta-mahsus 2016-yil Bulung‘ur qishloq xo‘jaligi kasb-hunar kolleji, Avtomobilarga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha texnik mexanik
12.	Babayorov Eldor Komil o‘g‘li 1998-yil Bulung‘ur tumani	Jizzax davlat pedagogika instituti 4-bosqich talabasi	Tugallanmagan oliy, musiqa madaniyati
13.	MAMIROV Murod Iskandar o‘g‘li, 1997-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani, “Mexrjon” mahallasi yoshlar yetakchisi	Oliy, 2021-yil, Guliston Davlat universiteti Jismoniy madaniyat
14.	ShUKURBOEV Ozodjon Lapas o‘g‘li, 1997-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani, “Guliston” mahallasi yoshlar yetakchisi	Oliy, 2020-yil, Samarqand vetirinariya meditsinasi instituti Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi
15.	IKROMOV Feruz Sultonqul o‘g‘li, 1993-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani, “Lalmikor” mahallasi yoshlar yetakchisi	O‘rta-maxsus, 2012-yil, Bulung‘ur pedagogika va sport kolleji, Bolalar sporti va jismoniy tarbiya
16.	Ummatova Nigora Ulug‘bek qizi 2000-yil, Bulung‘ur tumani	Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi	Tugallanmagan oliy

17.	ABDUKARIMOV Bexzod Faxriddin o‘g‘li, 1995-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani, “Beshqo‘ton” mahallasi yoshlar yetakchisi	Oliy, 2021-yil Jizzax Politexnika instituti, Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi
18.	TOSHTEMIROV Jaxongir Shuxrat o‘g‘li, 1993-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani, “Navbahor” mahallasi yoshlar yetakchisi	Oliy, 2019-yil Samarqand chet tillar instituti, Filologiya tillarni o‘qitish (koreys, ingliz tili)
19.	SAMIDDINOV Otabek Odil o‘g‘li, 1993-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani, “Samarqand” mahallasi yoshlar yetakchisi	O‘rta-maxsus, 2011-yil Bulung‘ur milliy hunarmandchilik kolleji, Muxandislik komunikatsiya
20.	SAIDQULOVA Tashbuvi Alisher qizi 1999-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani XTB ga qarashli 2- umumiy o‘rta ta’lim maktabi kadrlar bo‘yicha menejeri	Tugallanmagan oliy, Samarqand davlat universiteti bosqich talabasi, Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ishi
21.	MIRZAKABILOV Xusan Rahmatullaevich 1993-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi	Oliy, 2019-yil, Samarqand vetirinariya va meditsinasi instituti, vetirinariya
22.	OLIMJONOVA Saodat G‘ulomjon qizi 1995-yil, Bulung‘ur tumani	Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Samarqand filiali talabasi	Tugallanmagan oliy, kompyuter injiniringi yo‘nalishi

23.	KAMALOV Sunnatillo Ravshan o‘g‘li 1995-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani 55-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi	Oliy, 2017-yil, Samarqand arxitektura va qurilish instituti
24.	QLICHEV Bunyod Dilshod o‘g‘li 1994-yil, Bulung‘ur tumani	32-umumiy o‘rtta ta’lim maktabi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari	Oliy, 2016-yil, O‘zbekiston davlat jaxon tillari universiteti, filologiya va tillarni o‘qitish (ingliz tili)
25.	BOVATOV Javoxir Anvar o‘g‘li 1999-yil Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tuman hokimligi referenti	Tugallanmagan oliy, Samarqand Davlat Universiteti, Milliy g‘oya manaviyat asoslari huquq
26.	QARSHIBOYEVA Nigora Ziyodulla qizi 2000-yil Bulung‘ur tumani	Samarqand davlat universiteti talabasi	Tugallanmagan oliy, Samarqand Davlat Universiteti, Tarix
27.	QO‘SHMURODOVA Dinora Baxtiyor qizi 1999-yil, Bulung‘ur tumani	Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi	Tugallanmagan oliy, Samarqand Davlat chet tillari instituti, ingliz tili
28.	VAHOBOVA Marhabo O‘lmas qizi 2002-yil, Bulung‘ur tumani	Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi	Tugallanmagan oliy, Samarqand davlat chet tillar instituti, nemis tili

29.	KELDIBEKOV Qaxramoan Anvar o‘g‘li 1998-yil, Bulung‘ur tumani	Samarqand Iqtisodiyot va servis Institutti talabasi	Tugallanmagan oliy, Samarqand Iqtisodiyot va Servis Institutti
30.	ABDUGANIEVA Farida Mahramqul qizi 1992-yil, Bulung‘ur tumani	Bulung‘ur tumani hokimligi hisobchisi	O‘rta-maxsus, 2010-yil,. Toshkent iqtisodiyot va servis kolleji moliyachi-auditor